

MILLIY XALQ O'YINLARI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI TO'G'IRLASH OMILI

Namangan viloyati Chust tumani 30-son

DMTT director o'rinbosari

Parpiyeva Sayyora Raximjonovna

Annotatsiya

Maqolada bolalar nutqini rivojlanishida nutqning grammatik xususiyatiga ham to'xtalib, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini tuzatishda milliy xalq o'yinlarining ahamiyati bayon qilib berilgan. Shuningdek, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni korreksiyalashning pedagogik va psixologik jihatlari ham tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ommaviy madaniyat, afaziya, rinolaliya, dizartriya, duduqlanish.

NATIONAL FOLK GAMES ARE A FACTOR IN IMPROVING THE SPEECH OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

The article discusses the grammatical nature of speech in the development of children's speech and describes the importance of national folk games in the correction of speech in preschool children. The pedagogical and psychological aspects of the correction of children with speech defects are also analyzed.

Keywords: education, mass culture, aphasia, rhinolalia, dysarthria, stuttering.

Bolaning nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish nafaqat psixologiya nuqtai nazaridan dolzarb, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Nutq kommunikativ faoliyat tarkibidagi tarkibiy element, bu esa o'z navbatida bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aloqa va nutq orqali bola insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi xazinasidan ma'lumot olishni o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi og'zaki monologik nutqni rivojlantirish maktabda muvaffaqiyatli o'qitish uchun asos yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish uchun asosiy o'yin vazifalaridan biri bu bolaning so'zlarini boyitish, tushunchalarni o'zlashtirishda, ishlatilgan so'zlarning polisemiyasini va ularning semantik soyalarini tushunishda. O'yinlarda nutq faoliyati rivojlanadi, ona tiliga qiziqish va e'tibor tarbiyalanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqining grammatik to'g'riligini shakllantirish nutqqa nisbatan tanqidiy munosabat paydo bo'lishi hamda rivojlanishi,

aniq va to'g'ri so'zlashga intilish bilan bog'liq. To'g'ri so'zlashga intilish grammatikaning barcha sohalari – morfologiyada (aniq shakl hosil qilishda, shakllarning turli-tumanligini o'zlashtirishda: stollar, stullar, qavatlar va boshq., so'z hosil qilishda (non uchun – nondon, tuz uchun tuzdon va boshq.) qo'llaniladi.

Nutqning grammatik to'g'riligiga intilish ko'proq yetti yoshli bolalarga xosdir. Besh yoshli bolakay hali ham grammatik shakllar ustida zavq bilan mashq qiladi va aynan mana shu so'z bilan mashqlar kelajakda grammatik jihatdan to'g'ri ifodalangan nutq uchun poydevor yaratadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini tadqiq etish natijalarini sifat jihatdan tahlil etish shuni ko'rsatdiki, eng ko'p fikr bildirishlar hajmi sevimli ertaklarni aytib berish hissasiga, eng kami esa, o'z shaxsiy tajribasidan kelib chiqib, hikoya tuzish hissasiga to'g'ri keldi. Fikr bildirish hajmi va nutqning tezkorligi nafaqat bolaning faol lug'at zaxirasini, balki uning «o'ta tezkor sintez» qila olish qobiliyatini ham tavsiflaydi.

Bolalarning biron-bir narsa, hodisa haqidagi bilimlari qanchalik chuqur va xilma-xil bo'lsa, ularning fikr bildirishlari ham shunchalik keng bo'ladi. Bolalarning nutqida oddiy gaplar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ba'zan «esa», «va» kabi bog'lovchilar ishtirokida tuzilgan va ba'zan esa ularsiz bog'langan qo'shma gaplar ham uchraydi. Bildirish xususiyatiga ko'ra bolalar hikoyalaridagi aksariyat gaplar darak gaplardir, nutq bir xil ohangda jaranglaydi, ko'pincha so'zlar o'rtasidagi sintaktik bog'liqlik, ya'ni: gapdagi so'zlar tartibi, inversiya buzilishiga oid xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Hikoya qilib berishda so'z birikmalarini tuzishda xatoliklarga yo'l qo'yilishi kuzatiladi.

Maktabgacha ta'limim yoshida nutq bolalar ongining rivojlanishi bilan o'zaro mutanosib ravishda rivojlanadi. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan davrda bolalar kundalik turmushda doimiy ravishda qo'llaniladigan so'zlarning deyarli barchasini va tilning oddiy grammatik usullarini o'zlashtirib oladilar.

Maktabgacha ta'lim yoshida bolalarning atrofdagilar-tengdoshlari va kattalar bilan faol muloqotda bo'lishlari ularning nutq boyliklarining oshishiga xizmat qiladi.

Insonni har tamonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish – ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Chunki insonni ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi nafaqat ota-ona, pedagoglar emas butun jamiyat yetakchiligidagi amalga oshiriladi. Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma vaqt muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo

bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, — ommaviy madaniyat kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani – ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi.

Shunday ekan yosh avlodni raqobatbardosh qilib tarbiyalashimiz uchun ta'lim-tarbiyani yoshlikdan mustahkamlashimiz kerak. Donishmandlarimiz —Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqish deb bejizga aytmaganlar. Inson shakllanishi uchun asosiy qolip maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'yiladi. Shu sababli prezidentimiz tamonidan maktabgacha ta'lim sohasi tubdan isloh qilinmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishi, o'z fikrini mustaqil ravishda ravon, chiroyli bayon etishi, shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois bolaning maktabgacha davrida nutqni me'yorida rivojlanishiga ahamiyat berish alohida o'rin tutadi. Bola shaxsining har tomonlama rivojida nutq benuqsonligining ahamiyati katta. Chunki nutq-kishilararo aloqa quroli, barcha sohalarda qudratli muomala vositasidir. Nutqiy nuqsoni bo'lgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ta'lim tarbiyasi jamiyatimizda maxsus ta'limning ajralmas qismi sifatida amalga oshiriladi. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagi 528-son qarorining 3-ilovasi aynan —Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risida bo'lib, qarorning 3-bobining 22-bo'limida nutqiy nuqsoni bor bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilinishiga to'xtalgan.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotiga jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan 3 — 7 yoshdagi bolalarning quyidagi toifalari qabul qilinadi:

1. Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar:

- a) alaliya;
- b) bolalar afaziyasi;
- v) rinolaliya;
- g) dizatriya ;
- d) duduqlanish.

Bolalarni jismoniy yoki psixik rivojlanishi uchun davlatimizda ham e'tibor yetarli darajada. Jamiyatimizda nutqi umumiy rivojlanmagan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish va tibbiy yordam ko'rsatish ishlari hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qoldi. Bu asnoda katta o'zgarishlar qilinmoqda

Nutqiy nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ulardagi nuqson qay darajada ekanligi ham albatta hisobga olinadi. Bola nutqining rivojlanish jarayoni o'z vaqtida to'g'ri kechishi uchun maxsus sharoitlar lozim bo'ladi, chunki: bola psixik va somatik jihatdan sog'lom bo'lishi: normal aqliy qobiliyatga ega bo'lishi, normal eshitishi va ko'rishi kerak: yetarli darajada psixik faollikka ega bo'lishi, to'g'ri nutq muhiti sharoitida bo'lishi lozim.

Demak, nutqning to'g'ri tarkib topishi atrofdegilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Lekin, nutqidagi nuqsonlar tug'ma (biologik) va orttirilgan (patologik) sabablar tufayli bolalar nutqi rivojlanmaydi, orqada qoladi.

Nutq nuqsoni deganda nima tushuniladi? Nutq nuqsoni bu muayyan tilda qabul qilingan adabiy nutq normalari me'yoridan bir oz bo'lsada buzilishidir. Nutq kamchiligi tovush talaffuzi yoki fonetik-fonematik kamchiliklarda (dislaliya, dizatriya, rinolaliya), fonetik va leksik-grammatik komponentlarda (alaliya, afaziya, yozish va o'qishda - disgrafiya, disleksiya), nutq sur'ati ohangi buzilishida (tutilish) kuzatiladi. Biroq nutqdagi bu nuqsonlar o'z-o'zidan yo'qolib ketmaydi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bu nuqsonlarni bartaraf etishda, pedagoglarimiz bir qancha ishlarni amalga oshiradi. Ushbu maqolada biz bollar nutq nuqsonini bartaraf etishda madaniyatimizning ajralmas qismi milliy xalq o'yinlari asosida amalga oshirish yo'llariga to'xtalamiz.

Bolalar bog'chada, uyda, ko'chada o'rtoqlari bilan ko'plab o'yinlar o'ynaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning asosiy faoliyati o'yindir. U orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. O'yin bolalar uchun haqiqiy hayotdir. Ana shunday o'yinlarimizdan —Chillak o'yini, o'yinda ikki ishtirokchi bo'lib —yalov taxlanadi. Ishtirokchilar qo'lida uzunligi bir metr va 20-25 sm keladigan tayoqcha —Chillak bo'ladi. Bir ishtirokchi tayoqchasini yalovga mahkam bosib turadi, ikkinchi ishtirokchi esa raqibining tayog'ini uzoqroqqa irg'itishga harakat qiladi. Agar ikkinchi ishtirokchi tayoqni uzoqroqqa uloqtirishga erishsa, birinchi ishtirokchi chaqqonlik hamda (zuv,zuv,zuv) so'zini takrorlash bilan tayoqchasini tezlik bilan olib kelishi kerak. Ishtirokchini qo'llab-quvvatlash uchun atrofdegilar bolalar ham (zuv,zuv) so'zini takrorlab turishadi. Bu o'yin orqali bolalar —Z tovushini —S tovushi bilan almashtirmaslik va to'g'ri nafas olishni o'rganadi.

Ot o'yini bu o'yin orqali til uchi harakatchanligi faollashtiriladi. Bolalar qator bo'lib turadilar, ya'ni ular otchalardir. Tarbiyachi —ketdik degan so'zidan so'ng bolalar yuradilar va shu bilan birga ot yurishiga taqlid qiladilar (tra-tru, tra-tru). —to'xtang deyilgandan so'ng esa to'xtab, otni to'xtatish ovozigacha taqlid qiladilar (Drr-

dr...)). —Ot o‘yini orqali bolalar —R harfining talaffuzini mustahkamlaydi va alifbodagi talaffuzi qiyin tovushni yaxshi o‘zlashtiradi. Chunki —R tovushi aksariyat nutqida nuqsoni bor bolalar nutqida uchraydigan kamchilikdir.

O‘zbek bolalar repertuarida qo‘shiq kompozitsiyasiga aylangan o‘yinlar butun bir silsilani tashkil etadi. Yashiringanimni top, —chap berish, —zum-zum, —besh tosh, —otilgan do‘ppini kim oldin olib keladi. Bunday o‘yinlarni davom ettirsak ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin yuqoridagi o‘yinlarimizning barchasi bolalar nutqining rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilganda yuqorida bayon etilgan masalalar o‘z yechimini topmaganligi tufayli maktabgacha ta‘lim yoshidagi o‘zbek bolalarining nutqiga tegishli muammolarni chuqur o‘rganish, shu asnoda ona tilini rivojlantirishning tabaqalashgan metodlarini ishlab chiqish shu kunning muhim masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev 2017-yil —Kamolot yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi
2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi 528-son qarori 3-ilova
3. M.Y.Ayupova. Logopediya. Toshkent.: 2007-yil 6-bet